

FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI MIKROIQTISODIY TAHLIL QILISH.

Raxmonov Muxammadmirzo Fayzullo oqli

Osiyo xalqaro universiteti magistiri

Annotatsiya: *Zamonaviy bozor iqtisodiyotida pul taklifi bank tizimi (mamlakatning markaziy va tijorat banklari) tomonidan ta'minlanadi. Markaziy bank muomalaga turli qiymatdagi qog'oz pullar va tangalar chiqaradi.*

Kalit so'zlar: *Pul-kredit siyosati, Markaziy bank, Pul nazariyasi, Pul taklifi, Byudjet, Cheklovchi fiskal siyosat,*

Bozor iqtisodiyotining asosiy qoidasi shundan iboratki, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida turli xildagi moliyaviy iqtisodiy siyosatlarni amalga oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatining asosiy ko'rinishlari monetar (pulkredit) siyosat va fiskal sohalarida amalga oshiriladi. Pul – kredit (monetar) siyosati – bu narxlar barqarorligi, aholining to'la bandligi va ishlab chiqarishning real hajmi o'sishini ta'minlash maqsadida muomaladagi pul miqdoriga ta'sir etuvchi davlatning iqtisodiy siyosatidir. Pul-kredit siyosatining iqtisodiy va tashkiliy asoslarini o'ziga xosligi uning obyektlari va subyektlarining xususiyatlari bilan belgilanadi. Pul – kredit siyosatining obyektlari pul bozoridagi talab va taklifdir. Pul-kredit siyosatining subyektlari deganda, eng avvalo Markaziy bank hamda u bilan o'zaro harakat qiluvchi, moliyaviy tizimning ishlashida qatnashuvchi banklar va boshqa pul-kredit boshqaruvi organlari tushuniladi. Zamonaviy monetarizm nazariyasining asoschisi M.Fridmen va uning izdoshlari pul massasini pul-kredit instrumentlarining asosiy indikatorlari deb hisoblaydilar. Ularning fikriga ko'ra, pullarga bo'lgan talab funksiyasi xarajatlar funksiyasiga qaraganda ancha barqaror hisoblanadi. Shu sababli pul massasi pulkredit instrumentlarining asosiy indikator sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, pul-kredit instrumentlarining asosiy indikatorlari asosan, ikki muhim xususiyatga ega bo'lishi lozimligi to'g'risida fikr iqtisodiy adabiyotlarda ko'p tarqalgan. Ya'ni birinchidan, indikator pul-kredit instrumentlarining ta'siri ostida bo'ladigan miqdor sifatidan aniq belgilab olingan bo'lishi kerak, Ikkinchidan, u hukumat iqtisodiy siyosati maqsadlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Pul nazariyasi – iqtisodiy tizimga pulning ta'sirini o'rganuvchi iqtisodiy nazariyaning muhim bir sohasidir. Iqtisodiyotga pul-kredit siyosatining ta'sir etish mexanizmlarini o'rganish pul taklifini belgilovchi omillar tahlilini o'z ichiga oladi. Bu o'rganishning boshqa yana bir muhim bosqichi – pulga bo'lgan talab tahlilidir. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida pul taklifi bank tizimi (mamlakatning markaziy va tijorat banklari) tomonidan ta'minlanadi. Markaziy bank muomalaga turli qiymatdagi qog'oz pullar va tangalar chiqaradi. Tijorat banklari esa pul mablag'lari oqimini jamg'arma egalaridan qarz oluvchilarga yetkazuvchi moliyaviy vositachilardir. Agar tijorat banklar o'z mijozlariga qarz bersa pul massasi ko'payadi va aksincha mijozlar tijorat banklardan olgan qarzlarini qaytarishsa kamayadi. Pul taklifi

deganda mamlakat iqtisodiyotida muomalada bo'lgan pul miqdori tushuniladi. Pul taklifi hajmini bilish (o'lchash) uchun quyidagi agregatlardan foydalaniladi: Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish xisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orqali xam erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjetsoliq siyosati deb xam aytiladi. Byudjet – soliqlik siyosati deganda noinflyatsion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi. Iqtisodiyot turgunlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan ragbatlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya'ni, davlat qisqa muddatda iqtisodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga xal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul xolatga olib kelish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiyotda to'liqlik bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat - fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo'shimcha turtki bo'lishi mumkin. **Fiskal restriksiya** — bu davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish yoki ikkala chorani bir vaqtda qo'llash orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini cheklash.

Fiskal restriksiya o'tkazish sabablari: Iqtisodiyot to'liqlik bandlik darajasiga yetgan va talab taklifdan oshib ketgan. Iqtisodiyotda inflyatsiya xavfi mavjud.

Fiskal restriksiya o'tkazishning oqibatlari: Qisqa muddatli davrda talab inflyatsiyasi kamayadi. Uzoq muddatli davrda yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo'shimcha turtki bo'lishi mumkin. Fiskal restriksiya quyidagi hollarda samarali bo'lmasligi mumkin: Iqtisodiyot tushkunlik davrida bo'lganda. Agar mamlakat iqtisodiy tushkunlik davrida bo'lsa, hukumat ragbatlantiruvchi fiskal siyosat o'tkazadi. Soliqlar juda yuqori bo'lganda. Yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Davlat xarajatlari samarasiz foydalanilganda. Davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish fiskal restriksiyaning samaradorligini kamaytirishi mumkin. Ragbatlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiy tushkunlik davrida iqtisodiyotni tiklash uchun qo'llaniladi. Ragbatlantiruvchi fiskal siyosat vositalari: davlat xarajatlarini oshirish; soliqlarni kamaytirish. Bu choralarni bir vaqtda qo'llash mumkin. Ragbatlantiruvchi fiskal siyosat yalpi talabni oshirish orqali iqtisodiy o'sishni

rag'batlantiradi. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat kengaytiruvchi pul-kredit siyosati bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin. Fiskal siyosatning ayrim salbiy tomonlari: Soliqlarning oshishi. Bu iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi va investitsiyalarni kamaytirishi mumkin. Davlat xarajatlarining samarasiz foydalanilishi. Bu iqtisodiy ahvolni yomonlashtirishi mumkin. Soliqlarni kamaytirishning samarasizligi. Konservatorlar soliqlarni kamaytirishni afzal ko'radilar, lekin bu siyosat bozorlar iqtisodiyotni yaxshilashi uchun yetarli bo'lmasligi hamda. Fiskal restriksiyaning uzoq muddatli oqibatlari. Yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Fiskal siyosatning pul-kredit siyosatidan kechikishi. Hukumatlar iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda tez reaksiya ko'rsata olmasligi mumkin. Soliqlarni kamaytirishning noaniq samaradorligi. Soliqlarni kamaytirish iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilishini bashorat qilish qiyin. Soliqlarni kamaytirishning uzoq muddatli samaradorligi. Soliqlarni kamaytirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, lekin uzoq muddatli istiqbolda uning ta'siri kamayishi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" (yangi tahriri) , 2019-yil 30-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli.
4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832 sonli.